

**FARG'ONA VILOYATI XUDUDLARI KESIMIDA KO'KRAK BEZI SARATONI
BILAN KASALLANISHNING STATISTIK TAHLILI**

**СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ РАКОМ МОЛОЧНОЙ
ЖЕЛЕЗЫ ПО РЕГИОНАМ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

STATISTICAL ANALYSIS OF BREAST CANCER INCIDENCE IN FERGANA REGION

Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna

<https://orcid.org/0000-0001-6223-103X>

Central Asian Medical University

Parpiyeva O.R. FARG'ONA VILOYATI XUDUDLARI KESIMIDA KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANISHNING STATISTIK TAHLILI. In ActaCAMU (Vol. 11, Number 1, pp. 157–164). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17181703>

Аннотация. *Ko'krak bezi saratoni mamlakatimizda ayollar o'rtasida kasallanish va o'lim darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. So'nggi yillar ichida O'zbekistonda ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish darajasi ortib bormoqda. Mamlakatimizda va dunyoda ayollarda eng ko'p uchraydigan saraton va o'limning eng ko'p sababi bo'lgan ko'krak bezi saratoni ko'krak to'qimalaridagi hujayralar nazoratsiz ravishda ko'payganda yuzaga keladi. Ko'krak bezi saratoni butun dunyo bo'ylab ayollarda barcha saratonlarning 30 foizini va saraton bilan bog'liq o'limlarning 14 foizini tashkil qiladi va saratonning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.*

Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish, uning hududlar kesimida tarqalishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot va uning natijalari, kasallanishning epidemiologik xususiyatlari va ko'krak bezi saratonini oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Калит so'zlar: *ko'krak bezi saratoni, sog'lom ovqatlanish, statistik ma'lumotlar, retrospektiv tahlil, kasallanish ko'rsatkichlari, o'lim ko'rsatkichlari, yashovchanlik.*

Аннотация. *Рак молочной железы является основной причиной заболеваемости и смертности среди женщин в нашей стране. В последние годы заболеваемость раком молочной железы в Узбекистане растет. Рак молочной железы, наиболее распространенный вид рака и основная причина смерти женщин в нашей стране и в мире, возникает, когда клетки в ткани молочной железы размножаются бесконтрольно. Рак молочной железы составляет 30% всех случаев рака и 14% смертей от рака у женщин во всем мире и является наиболее распространенным типом рака.*

В данной статье представлено исследование заболеваемости раком молочной железы в Ферганской области, ее распределение по регионам, его результаты, эпидемиологическая характеристика заболевания и рекомендации по профилактике рака молочной железы.

Ключевые слова: *рак молочной железы, здоровое питание, статистические данные, ретроспективный анализ, показатели заболеваемости, показатели смертности, выживаемость.*

Abstract. *Breast cancer is the leading cause of morbidity and mortality among women in our country. In recent years, the incidence of breast cancer in Uzbekistan has been increasing. Breast cancer, the most common cancer and the leading cause of death among women in our country and in the world, occurs when cells in the breast tissue multiply uncontrollably. Breast cancer accounts for 30% of all cancer cases and 14% of cancer deaths in women worldwide and is the most common type of cancer. This article presents a study of breast cancer incidence in the Fergana region, its distribution by region, its results, epidemiological characteristics of the disease and recommendations for the prevention of breast cancer.*

Key words: breast cancer, healthy nutrition, statistical data, retrospective analysis, incidence rates, mortality rates, survival.

Dolzarbliigi. Har yili ortib borayotgan ko'krak bezi saratoni holatlarida tarqalish va o'lim darajasini pasaytirish uchun ikkita asosiy yondashuv ajralib turadi. Ulardan birinchisi, bemorga kasallikni yuqtirish xavfini minimallashtiradigan turmush tarzini qabul qilish orqali profilaktika choralarini ko'rishdir. Ikkinchisi, kasallikni erta tashxislash orqali ko'krak bezi saratonini davolash jarayonini va uning oqibatlarini to'g'ri boshqarishdir. Bu ikki maqsad uchun eng muhim ekologik omillardan biri ovqatlanish odatlaridir.

Ko'krak bezi saratoni – saratonning ayollarda eng keng tarqalgan shakli bo'lib, O'zbekistonda shu turdagi kasalliklar orasida o'limlar soni bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me'yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog' miqdori ko'p bo'lgan taom va shirinliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish, shuningdek yetarli darajada vitamin va minerallar iste'mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o'sish va aqliy rivojlanishdan ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o'sma kabi insonlarning erta o'limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Aholi orasida umr ko'rish davomiyligini oshirishda ovqatlanishning o'rni beqiyosdir. Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlashda davlat siyosatini yanada mustahkamlash, yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish, har bir fuqaroda sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik madaniyatini shakllantirish maqsadida 2020 yil 10 noyabrda "Aholini sog'lom ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4887-sonli Prezident Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorlarining asosi aholining turli qatlamlari orasida sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanishni targ'ibot qilish orqali ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar va ularning asoratlarini oldini olishga qaratilgan. Fertil yoshidagi ayollarning salomatlik holatini yaxshilash bugungi kundagi soha xodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi: 2019-2023 yillar davomida Farg'ona viloyati hududlarida ko'krak bezi saratonidan aholining kasallanish va o'lim darajasining asosiy ko'rsatkichlarini statistic tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ushbu tadqiqot ish doirasida 2019-2023 yillar davomida Farg'ona viloyati va uning hududlari bo'yicha Xalqaro kasalliklar tasnifining o'ninchi tahriri (MKB-10) ga, "Xavfli o'sma kasalliklari to'g'risida ma'lumot" 7-shaklga hamda RIO va RIATM Farg'ona viloyat filialining yillik hisobotlariga muvofiq, ko'krak bezi saratoni tashxisi qo'yilgan bemorlarning kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganildi.

Retrospektiv tahlilda mutlaq, nisbiy va o'rtacha qiymatlar hisoblab chiqilgan. Olingan barcha natijalar V.M.Merabishvili tomonidan taklif qilingan onkologik statistikaning axborot texnologiyalaridan foydalangan holda Excel va Statistica 7.0 tizimlarida standart dasturlar yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqotning birinchi bosqichida C50 ko'krak bezi saratonining halqaro statistik tasnifiga (ICD - 10) muvofiq 5 yil davomida 2019-2023 dinamikasida tarqalishi bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot uchun asosiy materiallar F-7, F-2-1 shakllari orqali o'rganildi. Yoshi, yashash joyi, onkologik kasallanishning tuzilishi bo'yicha ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish ko'rsatkichlarining chastotasi hisoblangan va tahlil qilingan. Tashhisleri keng qamrovli klinik tekshiruvlar asosida va morfologik jihatdan tasdiqlangan bemorlar tashhis qo'yilgan ko'krak bezi saratoni bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi.

1 jadval

Ko'krak bezi saratoni tashhisi keng qamrovli klinik tekshiruvlar asosida va morfologik jihatdan tasdiqlangan bemorlarning Farg'ona viloyati hududlari kesimida taqsimoti

| Shahar va tumanlar | Birinci marta aniqlanganlar | | | | | Tibbiy ko'rik vaqtida aniqlanganlar | | | | | Morfologik teshiruvda tasdiqlanganlar | | | | |
|--------------------|-----------------------------|------------|-------------|-------------|-------------|-------------------------------------|------------|------------|-------------|-------------|---------------------------------------|------------|-------------|-------------|-------------|
| | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
| Farg'ona sh | 50 17,6 | 53 18,3 | 31 10,6 | 47 15,7 | 57 18,1 | 38 13,4 | 33 11,4 | 19 6,5 | 29 9,7 | 43 13,7 | 50 17,6 | 52 18,0 | 31 10,6 | 47 15,7 | 57 18,1 |
| Qo'qon sh | 44 17,8 | 44 17,4 | 43 16,8 | 41 15,8 | 54 17,8 | 35 14,2 | 44 17,4 | 39 15,2 | 13 5,0 | 54 17,8 | 44 17,8 | 44 17,4 | 42 16,4 | 39 15,0 | 54 17,8 |
| Marg'ilon sh | 13 5,7 | 29 12,3 | 33 13,8 | 32 13,2 | 34 13,8 | 12 5,2 | 24 10,2 | 27 11,3 | 30 12,4 | 24 9,7 | 13 5,7 | 29 12,3 | 33 13,8 | 32 13,2 | 34 13,8 |
| Quvasoy sh | 9 9,9 | 8 8,6 | 13 13,7 | 15 15,5 | 20 20,2 | 9 9,9 | 8 8,6 | 13 13,7 | 15 15,5 | 20 20,2 | 9 9,9 | 8 8,6 | 13 13,7 | 15 15,5 | 20 20,2 |
| Oltiariq t | 20 9,8 | 14 6,6 | 24 11,2 | 27 12,3 | 27 12,1 | 18 8,8 | 10 4,7 | 19 8,9 | 27 12,3 | 27 12,1 | 16 7,8 | 14 6,6 | 14 6,5 | 27 12,3 | 27 12,1 |
| Qo'shtepa t | 14 7,6 | 13 6,9 | 15 7,8 | 19 9,6 | 30 14,7 | 13 7,1 | 3 1,6 | 13 6,7 | 19 9,6 | 30 14,7 | 14 7,6 | 13 6,9 | 15 7,8 | 19 9,6 | 30 14,7 |
| Bog'dod t | 19 9,2 | 14 6,5 | 29 13,2 | 21 9,4 | 30 13,2 | 19 9,2 | 11 5,1 | 27 12,3 | 21 9,4 | 30 13,2 | 15 7,2 | 14 6,5 | 29 13,2 | 21 9,4 | 30 13,2 |
| Buvayda t | 9 4,1 | 12 5,3 | 14 6,1 | 8 3,4 | 18 7,5 | 8 3,6 | 12 5,3 | 14 6,1 | 8 3,4 | 18 7,5 | 8 3,6 | 12 5,3 | 14 6,1 | 8 3,4 | 18 7,5 |
| Beshariq t | 13 5,9 | 22 9,7 | 29 12,6 | 27 11,5 | 26 10,9 | 10 4,5 | 16 7,0 | 18 7,8 | 27 11,5 | 26 10,9 | 11 5,0 | 22 9,7 | 27 11,7 | 27 11,5 | 26 10,9 |
| Quva t | 24 9,6 | 24 9,3 | 23 8,8 | 26 9,8 | 28 10,3 | 24 9,6 | 23 8,9 | 21 8,0 | 26 9,8 | 26 9,6 | 24 9,6 | 24 9,3 | 23 8,8 | 25 9,4 | 28 10,3 |
| Rishton t | 16 8,2 | 14 6,9 | 19 9,3 | 27 13,0 | 27 12,7 | 12 6,1 | 13 6,4 | 15 7,3 | 22 10,6 | 27 12,7 | 16 8,2 | 14 6,9 | 15 7,3 | 27 13,0 | 27 12,7 |
| So'x tumani | 6 8,0 | 5 6,3 | 4 5,1 | 2 2,5 | 7 8,5 | 6 8,0 | 5 6,3 | 2 2,5 | 2 2,5 | 7 8,5 | 6 8,0 | 5 6,3 | 4 5,1 | 2 2,5 | 7 8,5 |
| Toshloq t | 18 9,2 | 20 9,9 | 23 11,2 | 26 12,4 | 19 8,9 | 16 8,2 | 13 6,5 | 23 11,2 | 26 12,4 | 19 8,9 | 17 8,7 | 20 9,9 | 23 11,2 | 26 12,4 | 19 8,9 |
| Uchko'prik | 17 7,7 | 11 4,8 | 16 6,9 | 27 11,4 | 17 7,2 | 14 6,3 | 9 4,0 | 14 6,0 | 21 8,8 | 13 5,5 | 17 7,7 | 11 4,8 | 16 6,9 | 27 11,4 | 17 7,2 |
| O'zbekiston | 17 7,4 | 22 9,3 | 17 7,0 | 28 11,4 | 23 10,0 | 17 7,4 | 22 9,3 | 17 7,0 | 28 11,4 | 23 10,0 | 17 7,4 | 22 9,3 | 17 7,0 | 28 11,4 | 23 10,0 |
| Farg'ona t | 18 8,7 | 17 8,0 | 27 12,5 | 30 13,6 | 34 15,7 | 16 7,8 | 7 3,3 | 22 10,2 | 30 13,6 | 34 15,7 | 16 7,8 | 17 8,0 | 27 12,5 | 30 13,6 | 34 15,7 |
| Furqat t | 15 13,1 | 13 11,1 | 18 15,1 | 18 14,8 | 19 15,3 | 12 10,5 | 10 8,5 | 15 12,6 | 18 14,8 | 19 15,3 | 15 13,1 | 13 11,1 | 18 15,1 | 18 14,8 | 19 15,3 |
| Dang'ara t | 14 8,4 | 8 4,6 | 23 13,0 | 17 9,4 | 19 11,0 | 8 4,8 | 4 2,3 | 13 7,4 | 17 9,4 | 19 11,0 | 14 8,4 | 8 4,6 | 23 13,0 | 17 9,4 | 19 11,0 |
| Yozyovon t | 8 7,5 | 13 11,8 | 13 11,6 | 16 13,9 | 12 10,2 | 7 6,6 | 13 12,2 | 13 11,6 | 16 13,9 | 12 10,2 | 6 5,6 | 13 11,8 | 13 11,6 | 16 13,9 | 12 10,2 |
| Viloyat bo'yicha | 344 9,4 | 356 9,5 | 414 10,8 | 454 11,7 | 501 12,6 | 294 8,1 | 280 7,5 | 344 9,0 | 395 10,1 | 471 11,8 | 328 9,0 | 355 9,4 | 397 10,4 | 451 11,6 | 501 12,6 |


2023 yilda Farg'ona viloyatida 501 ta ko'krak bezi saratoni holati aniqlandi. 2019-2023 yillar mobaynida Farg'ona viloyatida 2069 ta ko'krak bezi saratoni holatlari aniqlangan. 2019-2022 yillarga nisbatan 2023 yilda bu ko'rsatkichning o'sishi (2019 yilda – 344 nafar, 2020 yilda – 356 nafar, 2021 yilda – 414 nafar, 2022 yilda – 454 nafar) kuzatilgan.

Farg‘ona viloyati hududlari kesimida ko‘krak bezi saratoni bilan kasallanish bo‘yicha intensiv ko‘rsatkichlar (100.000 aholi soniga nisbatan)

| Shahar va tumanlar | Ko‘krak bezi saratoni (C50) | | | | | | | | | |
|------------------------------|-----------------------------|------------|------------|------------|------------|-------------|------------|-------------|------------|-------------|
| | 2019 abs | % | 2020 abs | % | 2021 abs | % | 2022 abs | % | 2023 abs | % |
| Farg‘ona shahar | 50 | 17,6 | 53 | 18,3 | 31 | 10,6 | 47 | 15,7 | 57 | 18,1 |
| Qo‘qon shahar | 44 | 17,8 | 44 | 17,4 | 43 | 16,8 | 41 | 15,8 | 54 | 17,8 |
| Marg‘ilon shahar | 13 | 5,7 | 29 | 12,3 | 33 | 13,8 | 32 | 13,2 | 34 | 13,8 |
| Quvasoy shahar | 9 | 9,9 | 8 | 8,6 | 13 | 13,7 | 15 | 15,5 | 20 | 20,2 |
| Oltiariq tumani | 20 | 9,8 | 14 | 6,6 | 24 | 11,2 | 27 | 12,3 | 27 | 12,1 |
| Qo‘shtepa tumani | 14 | 7,6 | 13 | 6,9 | 15 | 7,8 | 19 | 9,6 | 30 | 14,7 |
| Bog‘dod tumani | 19 | 9,2 | 14 | 6,5 | 29 | 13,2 | 21 | 9,4 | 30 | 13,2 |
| Buvayda tumani | 9 | 4,1 | 12 | 5,3 | 14 | 6,1 | 8 | 3,4 | 18 | 7,5 |
| Beshariq tumani | 13 | 5,9 | 22 | 9,7 | 29 | 12,6 | 27 | 11,5 | 26 | 10,9 |
| Quva tumani | 24 | 9,6 | 24 | 9,3 | 23 | 8,8 | 26 | 9,8 | 28 | 10,3 |
| Rishton tumani | 16 | 8,2 | 14 | 6,9 | 19 | 9,3 | 27 | 13,0 | 27 | 12,7 |
| So‘x tumani | 6 | 8,0 | 5 | 6,3 | 4 | 5,1 | 2 | 2,5 | 7 | 8,5 |
| Toshloq tumani | 18 | 9,2 | 20 | 9,9 | 23 | 11,2 | 26 | 12,4 | 19 | 8,9 |
| Uchko‘prik tumani | 17 | 7,7 | 11 | 4,8 | 16 | 6,9 | 27 | 11,4 | 17 | 7,2 |
| O‘zbekiston tumani | 17 | 7,4 | 22 | 9,3 | 17 | 7,0 | 28 | 11,4 | 23 | 10,0 |
| Farg‘ona tumani | 18 | 8,7 | 17 | 8,0 | 27 | 12,5 | 30 | 13,6 | 34 | 15,7 |
| Furqat tumani | 15 | 13,1 | 13 | 11,1 | 18 | 15,1 | 18 | 14,8 | 19 | 15,3 |
| Dang‘ara tumani | 14 | 8,4 | 8 | 4,6 | 23 | 13,0 | 17 | 9,4 | 19 | 11,0 |
| Yozyovon tumani | 8 | 7,5 | 13 | 11,8 | 13 | 11,6 | 16 | 13,9 | 12 | 10,2 |
| JAMI viloyat bo‘yicha | 344 | 9,4 | 356 | 9,5 | 414 | 10,8 | 454 | 11,7 | 501 | 12,6 |

Epidemiologik ko‘rsatkichlarning umumlashtirilgan ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki (2-jadval), 2023 yilda Farg‘ona viloyatida ko‘krak bezi saratoni bilan kasallangan 501 ta holat qayd etilgan. 2023 yilda ko‘krak bezi saratonidan o‘lim 178 kishida (2019 yilda – 146 kishi, 2020 yilda – 140 kishi, 2021 yilda – 140 kishi, 2022 yilda – 141 kishi) qayd etilgan bo‘lib, bu saraton kasalligidan vafot etganlar umumiy sonining 15,4 foizini (2019 yil – 13,9%, 2020 yil – 11,8%, 2021 yil - 12,2%, 2022 yil - 12,4%) tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida tashxis qo‘yilgan ko‘krak bezi saratoni bilan og‘rigan bemorlarning 2019 yilda kasallikning I-II bosqichi bo‘lgan bemorlarning ulushi 7,1 % ni tashkil etdi. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 7,3 % gacha oshib, 2021-yilda (7,8 %), 2022-yilda 9,0 % ni, 2023-yilda I-II bosqichlari belgilangan bemorlarning ulushi mos ravishda 9,4 % ni tashkil etdi (1-diagramma).



1-diagramma. Farg‘ona viloyatida tasdiqlangan ko‘krak bezi saratonining bosqichlari bo‘yicha taqsimlanish dinamikasi

Farg‘ona viloyatida ko‘krak bezi saratonining yangi holatlarini bosqichlar bo‘yicha taqsimlash tahlili shuni ko‘rsatdiki, kasallikning III-IV bosqichlari bo‘lgan bemorlarning ulushi 2019 yilda - 2,3%, 2020 yilda – 2,1%, 2021 yilda – 3,0%, 2022-yilda – 2,6% va 2023-yilda – 3,1% ni tashkil etdi.

3-jadval

Farg‘ona viloyatida ko‘krak bezi saratoni bilan kasallanishning yoshlar kesimida taqsimlanishi

| Yillar | 2019 | m ± | 2020 | m ± | 2021 | m ± | 2022 | m ± | 2023 | m ± |
|------------------------|------------|------|------------|------|------------|-------|------------|-------|------------|-------|
| 0-4 | 0 | 0 | 1 | 0,09 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 5-9 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 10-14 | 0 | 0 | 1 | 0,09 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 15-17 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 2 | 0,17 |
| 18-19 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 20-24 | 1 | 0,09 | 0 | 0 | 1 | 0,085 | 0 | 0 | 1 | 0,085 |
| 25-29 | 6 | 0,5 | 6 | 0,5 | 17 | 1,381 | 9 | 0,749 | 9 | 0,749 |
| 30-34 | 8 | 0,67 | 8 | 0,67 | 20 | 1,61 | 18 | 1,458 | 19 | 1,534 |
| 35-39 | 22 | 1,76 | 22 | 1,76 | 33 | 2,549 | 44 | 3,278 | 37 | 2,821 |
| 40-44 | 52 | 3,77 | 39 | 2,95 | 46 | 3,404 | 56 | 4,004 | 54 | 3,888 |
| 45-49 | 50 | 3,65 | 54 | 3,89 | 63 | 4,394 | 66 | 4,554 | 70 | 4,76 |
| 50-54 | 59 | 4,17 | 74 | 4,96 | 68 | 4,658 | 51 | 3,71 | 81 | 5,285 |
| 55-59 | 51 | 3,71 | 67 | 4,61 | 43 | 3,214 | 70 | 4,76 | 72 | 4,86 |
| 60-64 | 55 | 3,95 | 47 | 3,47 | 51 | 3,71 | 52 | 3,77 | 55 | 3,946 |
| 65-69 | 25 | 1,98 | 17 | 1,38 | 35 | 2,686 | 44 | 3,278 | 60 | 4,23 |
| 70-74 | 3 | 0,25 | 11 | 0,91 | 20 | 1,61 | 23 | 1,834 | 24 | 1,908 |
| 75-79 | 2 | 0,17 | 4 | 0,34 | 9 | 0,749 | 10 | 0,83 | 8 | 0,668 |
| 80 yosh va undan katta | 8 | 0,67 | 3 | 0,25 | 6 | 0,504 | 10 | 0,83 | 7 | 0,586 |
| Jami | 342 | | 353 | | 412 | | 453 | | 499 | |

RIO va RIATM Farg‘ona viloyat filialida ro‘yxatga olingan barcha ko‘krak bezi saratoni bilan kasallanganlarning eng katta nisbiy ulushi (30,9%) 50-59 yoshga to‘g‘ri keldi. Tartib bo‘yicha keyingi o‘rinni 40-49 yosh (26,7%) 60-69 yosh (21,4%) egallagan bo‘lsa, 30-39 yoshda (11,2%) eng past nisbiy ulush 75 va undan katta yoshda (3,25%), 20-29 yoshda (2,4%), 0-17 yoshda (0,2%) aniqlangan.


Demak, so‘nggi yillarda ayollarning ko‘krak bezi saratoni bilan eng faol mehnat qobiliyati bo‘lgan yoshda xastalanish ortib bormoqda. Bizningcha, bu holat ularning mehnat faoliyati, yanada sust bo‘lgan reproduktiv faoliyat bilan; ya‘ni tug‘ilishning pasayishi va ko‘krak bilan oziqlantirishning chegaralanishi va hatto to‘xtatilishi, noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liqdir. Ko‘krak bezi patologiyasi bilan kasallanishning o‘sib borishi ayollar salomatligining umumiy holatida, ularning turmush sifatida aks etmay qolmaydi.

4-jadval

Farg‘ona viloyati hududlari kesimida ko‘krak bezi saratonidan 5 yillik o‘lim ko‘rsatkichlari (100.000 aholi soniga nisbatan)

| Shahar va tumanlar | Ko‘krak bezi saratoni (C50) | | | | | | | | | |
|------------------------------|-----------------------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| | 2019 abs | % | 2020 abs | % | 2021 abs | % | 2022 abs | % | 2023 abs | % |
| Farg‘ona shahar | 23 | 8,1 | 28 | 9,7 | 15 | 5,1 | 20 | 6,7 | 22 | 7,0 |
| Qo‘qon shahar | 22 | 8,9 | 8 | 3,2 | 13 | 5,1 | 6 | 2,3 | 5 | 1,6 |
| Marg‘ilon shahar | 8 | 3,5 | 6 | 2,6 | 5 | 2,1 | 5 | 2,1 | 10 | 4,1 |
| Quvasoy shahar | 2 | 2,2 | 1 | 1,1 | 4 | 4,2 | 2 | 2,1 | 7 | 7,1 |
| Oltiariq tumani | 4 | 2,0 | 9 | 4,3 | 5 | 2,3 | 3 | 1,4 | 9 | 4,0 |
| Qo‘sh tepa tumani | 6 | 3,3 | 6 | 3,2 | 4 | 2,1 | 13 | 6,6 | 8 | 3,9 |
| Bog‘dod tumani | 6 | 2,9 | 6 | 2,8 | 4 | 1,8 | 4 | 1,8 | 12 | 5,3 |
| Buvayda tumani | 4 | 1,8 | 11 | 4,9 | 2 | 0,9 | 4 | 1,7 | 8 | 3,3 |
| Beshariq tumani | 13 | 5,9 | 10 | 4,4 | 15 | 6,5 | 12 | 5,1 | 13 | 5,5 |
| Quva tumani | 8 | 3,2 | 5 | 1,9 | 15 | 5,7 | 10 | 3,8 | 10 | 3,7 |
| Rishton tumani | 6 | 3,1 | 8 | 3,9 | 5 | 2,4 | 8 | 3,8 | 14 | 6,6 |
| So‘x tumani | 3 | 4,0 | 1 | 1,3 | 3 | 3,8 | 1 | 1,2 | 1 | 1,2 |
| Toshloq tumani | 9 | 4,6 | 12 | 6,0 | 10 | 4,9 | 6 | 2,9 | 5 | 2,3 |
| Uchko‘prik tumani | 3 | 1,4 | 3 | 1,3 | 1 | 0,4 | 2 | 0,8 | 8 | 3,4 |
| O‘zbekiston tumani | 3 | 1,3 | 4 | 1,7 | 10 | 4,1 | 12 | 4,9 | 8 | 3,5 |
| Farg‘ona tumani | 9 | 4,4 | 5 | 2,4 | 8 | 3,7 | 12 | 5,4 | 11 | 5,1 |
| Furqat tumani | 6 | 5,2 | 6 | 5,1 | 10 | 8,4 | 9 | 7,4 | 8 | 6,4 |
| Dang‘ara tumani | 6 | 3,6 | 5 | 2,9 | 7 | 4,0 | 7 | 3,9 | 8 | 4,6 |
| Yozyovon tumani | 5 | 4,7 | 6 | 5,5 | 4 | 3,6 | 5 | 4,4 | 11 | 9,4 |
| JAMI viloyat bo‘yicha | 146 | 4,0 | 140 | 3,7 | 140 | 3,7 | 141 | 3,6 | 178 | 4,5 |

Kasallanishning eng yuqori darajasi Quvasoy shahrida 20,4 % ni, Farg‘ona shahrida 18,1 % ni, Qo‘qon shahrida 17,8 %ni tashkil etdi. Kasallikning past darajasi Uchko‘prik tumanida (7,2 %) va Buvayda tumanida (7,5 %) kuzatildi. Biroq, Yozyovon tumanida kasallanish darajasi past bo‘lishiga qaramay, yuqori o‘lim darajasi 9,4 % ni tashkil etdi. Eng past o‘lim darajasi So‘x tumanida kuzatildi - 1,2%.



2-diagramma. Farg‘ona viloyatida ko‘krak bezi saratoni bilan 5 yil va undan ortiq yil davomida dispanser nazoratida turgan bemor ayollarning nisbati

Ko‘krak bezi saratonida yashovchanlik 55 % ni tashkil etadi. Adekvat davo choralari ko‘rilmasa, bu ko‘rsatkich 10 %ni tashkil qiladi. Yashovchanlik darajasiga ko‘plab faktorlar ta'sir qiladi. Agar o'sma darajalariga qarab yashovchanlik aniqlansa, o'smaning boshlang'ich darajalarida 95 %ni tashkil qiladi. Ikkinchi bosqichda, o'smaning 5 sm gacha paydo bo'lishida, o'sma hujayralarining bir ikki limfa tugunlariga metastazlarida yashovchanlik 55-80 %ni tashkil qiladi.

Uchinchi va to'rtinchi bosqichdagi ko'krak bezi saratonida yashovchanlik 50-10 % ni tashkil etadi. Ammo shunga qaramay, o'z vaqtida kasallikni aniqlash, uni davolash, operativ va kimyo-nur terapiyalarni bir vaqtda olib borish, shifokor tavsiyalariga qat'iy rioya qilish, sog'lom turmush tarzini olib borish va sog'lom hamda muvozanatli ovqatlanishi ushbu kasallikni ma'lum darajada yengishga imkon beradi.

Xulosa. 2019 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda Farg'ona viloyati aholisi o'rtasida ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish darajasini tahlil qildik. Farg'ona viloyatida yangi tashxis qo'yilgan ko'krak bezi saratoni darajasining o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu esa ayollar orasida ushbu patologiyani erta aniqlash nuqtai nazaridan rejalashtirilgan onkologik yordam darajasining pasayishi bilan izohlanadi. Ammo shunga qaramay, Farg'ona viloyatida ko'krak bezi saratoni bo'lgan bemorlarda bir yillik o'lim va 5 yillik omon qolish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi tufayli umumiy kasallanish darajasi barqaror o'sib bormoqda.

Erta bosqichda tashxis qo'yilgan ko'krak bezi saratoni qulay prognoz va yuqori tirik qolish darajasiga ega. Saratonning 1 va 2 bosqichlari uchun tirik qolish darajasi deyarli 100 foizni tashkil qiladi. Shuning uchun ko'krak bezi saratonini nazorat qilish bo'yicha Milliy (integratsiyalashgan) dasturni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bemorlarni xabardor qilish, skrining va davolashga yo'naltirish, shuningdek, skrining va saraton reestrini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Natijada, taklif etilayotgan dastur ayollarda ko'krak bezi saratonini erta aniqlashga yordam beradi (I-II bosqichlarda). O'z navbatida, bu saratonni jarrohlik yo'li bilan davolash imkonini beradi, tirik qolish imkoniyatini oshiradi

Shunday qilib, Farg'ona viloyatida yangi aniqlangan va umumiy ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish darajasini o'rganish ixtisoslashtirilgan onkologik yordamga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, tibbiy yordam ko'rsatish hajmini hisoblash va uni moliyalashtirishni rejalashtirish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urta jamg'armalari hisobidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmiga tezkor va samarali tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paola De Cicco, Maria Valyeria Catani, Valyeria Gaspyeri, Matteo Sibilano, Maria Quaglietta, Isabella Savini (2019) Nutrition and Breast Cancyer: A Lityerature Review on Prevention, Treatment and Recurrence. *Nutrients* 2019, 11(7), 1514.

2. Yazıcı, O., Özdemir, N. (2018). Meme Kansyerinde Epidemiyolojik Vyerilyer, Risk Faktörlyeri, Risk Azaltıcı Yaklaşımlar. Türkiye Kliniklyeri Tıbbi Onkoloji-Özel Konular, 11(1), 1-7.
3. Pisegna, J.; Xu, M.; Spees, C.; Krok-Schoen, J.L. Mental health-related quality of life is associated with diet quality among survivors of breast cancer. Support. Care Cancer 2021, 29, 2021-2028.
4. Brown, J.C.; Sarwyer, D.B.; Troxel, A.B.; Sturgeon, K.; DeMichele, A.M.; Denlingyer, C.S.; Schmitz, K.H. A randomized trial of exyercise and diet on health-related quality of life in survivors of breast cancer with ovyerweight or obesity. Cancer 2021, 127, 3856–3864.
5. Normatova, S. A., & Parpiyeva, O. R. (2024). Assessment of the role of risk factors in the development of breast cancer. Theory and Analytical aspects of recent research, 2(21), 74- 78.
6. Parpiyeva, O. (2023). Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan ayollar ovqatlanishini korrektsiyalashni ilmiy asoslash (adabiyotlar tahlili). Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(12), 168-177.